

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA
O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI
O`ZBEK TILI YO`NALISHI
3-KURS 301-GURUH TALABASI

Mutalov Saidakbarning

“O`ZBEK TILIDAN MAXSUS SEMINAR” FANIDAN

“YUKLAMA VA UNING
MA`NO
TURLARI”

mavzusidagi

REFERATI

Ilmiy rahbar:

o`qit. U. Qo`ziyev

Yuklama va uning ma'no turlari

R E J A :

1. Yuklama so'z turkumi haqida
2. O'zbek tilshunosligida yuklamalar tadqiqi
3. Yuklama va ularning ma'no turlari
4. Yuklamalar intonatsiyasi

Yordamchi soʻzlar deb yurituvchi guruh tarkibida shunday yordamchilar borki, ular soʻz va gaplarni bir-biriga boʻlgan sintaktik munosabatini ifodalamaydi. Masalan:

*Afsona oshigʻi burok Iskandar
Saroylaring buzdi ermakka faqat
Dunyoga toʻygʻizding bamisoli par
Na saljuq, na Chingiz qilmadi shafqat.*

(A.Oripov. “Armaniston”, 170-b)

Yuqorida keltirilgan misoldagi faqat yordamchisi saroylaring buzdi jumlasini boshqalardan ayirib, boʻrttirib, taʻkidlab kelayapti. Shuning uchun yurtni vayron qildi degan maʼno Yashiringandir. Ana shu yashirin maʼnoga ishora faqat yordamchisi orqali seziladi. Agar mazkur jumla tarkibidan faqat yordamchisini olib tashlasangiz, yuqoridagi Yashirin maʼno ham xiralashadi.

*Menday xorgʻin yoʻlchi kelganda faqat,
Oʻzingni begona tutmagin, ona*

Yuqorida keltirilgan misollardan koʻrinib turibdiki, faqat yordamchisi ayrim narsa va hodisalarni boshqalardan ayirish, ajratish, harakatni chegaralash uchun qoʻllanadi. Faqat yordamchisi orqali jumladagi maʼno yaqqol koʻzga tashlanib turadi.

Ayrim gap boʻlagiga yoki gapga bir butun holda taalluqli qoʻshimcha maʼno ifodalash uchun xizmat qiladigan yordamchi soʻz yuklama¹¹ deyiladi. Yuklamalar butun bir gapning maʼnosini taʻkidlab, kuchaytirib, chegaralabkelishi, soʻroq maʼnolarini bildirib kelishi ham mumkin. Yuklamalar gapni taʻsirchan boʻlishida muhim rol oʻynaydi.

Yuklamalarning koʻpchiligi qoʻshimcha shaklida, ayrimlari esa soʻz shaklida qoʻllanishi borasida koʻplab baxslar ketadi.

¹¹ Hojiev A. Lingvistik-terminlarning izohli lugʻati. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1985.

Yuklamalar nutq uslublariga xoslanganligiga ko'ra ham farqlanadi. Ana shu belgiga ko'ra .klamalar ikki guruhga bo'linadi:

1. So'z yuklamalar: *axir, faqat, xuddi, nahotki, hatto, hattoki nahot, nihoyati. Agar, mobodo, basharti, atigi, tim, liq, lim, g'irt, jiqqa, naqadar, naq, qoq, aqalli* kabilar.

2. Qo'shimcha yuklamalar: *-mi, -chi, -a (ya), -da, -u (yu), -oq (yoq), -gina (kina, qina), -ku, -ki* kabilar.

O'zbek she'riy nutqida yuklamalarning hammasi qo'llanadi. Buni misollar orqali ko'rish mumkin. Masalan,

*Faqat bir qush bu shaharni tashlab ketmadi,
Faqat laylak Buxoroda manguga qoldi.*

(A.Oripov, 190-bet)

Faqat yuklamasi ajratib, chegaralab, ta'kidlab, ma'noni yaqqol oydinlashtirib kelyapti.

Yoki, *Qaytolmasman. Abadulabad
Mayin to'lqin singari endi
Yolg'iz oyning tagida faqat
Tun erkalab tebratar erni.*

(Shavkat Rahmon, 98-bet)

*Unga boqamanu ushlayman yoqa,
Nahot shu ko'rganim rost bo'lsa, nahot?
Nahotki erimiz bir kichik soqqa?
Nahotki biz shunga jo bo'lsak, hayhot!..*

(A.Oripov. "Ona sayyora", 210-bet)

*Nahotki, nahot yuklamalari so'roq bilan bog'liq bo'lgan taajjubni bildiradi.
Nahotki erimiz chappa aylanib,
Nahotki daryolar oqar teskari?!*

(G'ofur G'ulom)

Ba'zan nahotki yuklamasi ritorik so'roq berish asosida gap mazmunidan so'zlovchi kutgan xulosani chiqarish uchun qo'llanadi.

Yoki, *Nahotki etildi qora gardani...*
 Juvonmarg bo'lgurlar,
 Jo'marding bormu?!

(Shavkat Rahmon)

Hatto imoniga kir nazar bilan
Qarab, bisotiga ko'zin olaytgan
Kimsalar bilan ham tantilik qilib,
CHo'qishtirib ichar bo'z piyoladan.

(Shavkat Rahmon, 209-bet)

Hatto, hattoki yuklamalari ham fikrni kuchli ta'kidlash, avvalgi voqeani eslatish, ifodani kuchaytirish uchun qo'llanadi.

Yoki, *Faqairlar ko'nikkan balo, qahatga,*
 Shundan vodiylarda o'sib yotar mung,
 Hattoki bulbullar o'xshar kalxatga

(Shavkat Rahmon, 340-bet)

-chi yuklamasi so'roq nutqida -chi yuklamasi ko'proq kuchaytirish, undash uchun ishlatiladi. Masalan,

Bugun-chi, bir o'zim, yuribman tanho,
Sevgi ham, visol ham bo'ldilar abas.

(A.Oripov, 202-bet)

Yoki, *Hayotsan, bunchalar faryod aylama,*
 Men o'zim madadga zorman-ku, bolam

(A.Oripov, 182-bet)

A.Nurmanov ta'kidlaganidek, aslida, qo'shimcha yuklamalar guruhidagi yuklamalar qo'shimchalar ekan, ularni so'z turkumlari tarkibida o'rganish shartlidir, Chunki so'z turkumlariga bo'linish uchun u, albatta so'z maqomiga ega bo'lishi kerak. Masalan,

Muso iltijosi yotdi-yu, go'yo,

Haq Tur tog'i uzra ko'rgazdi jamol.

(A.Oripov. "Alisher", 194-b)

Yoki, *Sen she'rga qo'ling cho'zmagil, ey johili nokas,
Bo'lsang-da, "xudo" nomingni shayton yozajakman.*

(A.Oripov. "Yozajakman", 191-b)

-da, -u(-yu) yuklamasi ko'proq ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash, bir harakatdan keyin ikkinchisining tezlik bilan boshlanganligini bildiradi.

Yuqorida keltirilgan misolda -yu yuklamasi ma'noni kuchaytirib, -da yuklamasi esa ta'kidlab kelayapti.

Yoki, *Men-ku, bu dunyoda bir zori visol,
Karbalo dashtida Majnun sifatman:*

(A.Oripov. "Yurtim shamoli", 213-b)

Yuklamalarning imlosi muhim qirralaridan biri. Yuklamalarni imloda farqlash katta ahamiyatlarga ega. Ayniqsa qo'shimcha yuklamalarga e'tiborni qaratish lozim.

Qo'shimcha yuklamalarning ba'zilari qo'shilib, ayrimlari chiziqcha bilan ayirib yoziladi. Bular quyidagilar:

a) -oq (yoq), -dir, -gin, -gina (kina-qina), -xon, -jon, -oy, -bek, -bonu kabi qo'shimcha yuklamalar qo'shib yoziladi. Masalan,

*Menga nonday zarur,
Qilichday keskir,
Zaxarday mard so'zlar bo'lsayoq basdir.*

(Shavkat Rahmon, 203-bet)

Yoki: *O'yladim: "she'r bilan dunyo o'zgarmas,
O'zgarmas har toshni bosgan sarvarlik,
Har bir hayqiriqda ta'mai nafs bor,
Ba'zan jo'n niqobdir odamparvarlik".
Har holda baliqday jimjit yashasam,
Kimdur xursand bo'lar,
Kimdir-xotirjam.*

(Shavkat Rahmon, 251-bet)

Yoki:

*Ey ulug' daryoning bolakaylari,
Daryodek jo'shqindir g'ayratlaringiz.*

(Shavkat Rahmon, "Amudaryo qirg'oqlari" 214-bet)

b) *-ki, -da, -u (-yu), -a (-ya), -mi, -chi* kabi qo'shimcha yuklamalar esa o'zi taalluqli gapga va so'zlarga qo'shimcha ma'no kiritadi. Bu yuklamalar chiziqcha bilan ayirib yoziladi. Buni misollar orqali ko'rish mumkin:

*men-ku oddiy odam,
shundoq bo'lsa ham
shukur, bas, degancha g'animlarim bor.*

(A.Oripov. "Bobur", 487-bet)

Yoki:

*Biz uchun-chi, bir yil demak "shunchaki plan",
Bola-chaqa, o'tin-ko'mir, uy-joy tashvishi.*

(A.Oripov. "Oila", 394-bet)

Yuklamalarda sinonimiya hodisasi kuzatiladi, ya'ni birini o'rnida ikkinchisi qo'llanadi.

*Xullas, xuddi ertakday –
Zumda bitar kamuko'st.*

(Sh.Rahmon, "Ikki do'st", 299-bet)

*Xullas, aynan ertakday –
Zumda bitar kamu ko'st*

O'zbek she'riy nutqida *-gina (-kina, -qina)* yuklamalari asosan ot, sifat, ravish so'z turkumlariga qo'shilib, ma'noni kuchaytirish, erkalash, ta'kidlash uchun ishlatiladi.¹² *-gina (-kina, -qina)* yuklamalari ot so'z turkumiga qo'shilganda asosan

¹² Nurmanov A., Sobirov A., Yusupova SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Sharq, 2002. –B 321-323.

erkalash, kichraytirish, hurmat ma'nolarini bildiradi. Masalan,

*Shovqin sol, shovqinlar sol, majnun daraxtim,
Shovullayver tinsiz, daraxtzorginam!*

(A.Oripov, 51-bet)

Yoki:

*Sochginangni tarab qolding sen,
O, bilaman badjaxl otang
Qo'lginaangni bog'lab bir yo'la,
Bilak uzuk banding uzilsin.*

(A.Oripov, 518-bet)

Yoki:

*Boshginamga qo'yib yursam kechayu kunduz,
Nega bir tosh bo'lmagansan, seni avaylab.*

(A.Oripov, 74-bet)

-gina (-kina, -qina) yuklamalari sifatga qo'shilib kelganda ma'noni kuchaytirish, kichraytirish, belgining ortiq kamligini bildirish uchun xizmat qiladi. Masalan,

*Gul tuvakda chechaklar ham
Nozikkina qaltirab.*

(A.Oripov, 331-bet)

Yoki:

*Charog'on umrimni yoritgan quyosh
Torgina kulbamga boqmadi goho*

(A.Oripov, 358-bet)

Yoki:

*O'zi oddiygina,
Kam yo'q ishida.*

A.Oripov, "Hasadgo'y haqida", 565-bet)

- gina (-kina, -qina) yuklamalari ravish so'z turkumiga qo'yilganda ma'noni ta'kidlash, harakat-holatning ortiq kamligini bildirish uchun xizmat qiladi.

O'ynoqi shu'lalar-bolalar

Jimgina tarqalar sayhonga.

(Shavkat Rahmon, 55-bet)

Yoki: *Nahot kechagina qorlar tubida*
Bir tomchi harorat,
Bir tomchi shu'la.

(Shavkat Rahmon, 223-bet)

Yoki: *Dunyo tez o'zgarar*
Odam o'zgarar...
Kechagina har kun ermak topardi.

(Shavkat Rahmon, 263-bet)

Yoki: *Jindakkina fe'lingizni*
Kengroq qiling domlajon

(A.Oripov "Birinchi mashg'ulot", 327-bet)

O'zbek she'riy nutqida yuklamalar o'z o'rniga egadir. Chunki yuklamalar she'riy nutqdagi ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilganlardan –ku, na...na yuklamalari yozma nutq uchun xoslangan bo'lsa, qolganlari uslubiy betaraf yuklamalar sanaladi. –ku, na...na yuklamalari o'zbek she'riy nutqida o'ziga xos ma'no kasb etadi. Bu yuklamalar badiiy poetik nutqda ko'p qo'llanadi va ta'sirchanlikni oshiradi.

Masalan, *Sajdaga boshing urib faryod chekma, ey rafiq,*
Endi sen topgaymiding, topmabdi-ku ag'yorlar

(A.Oripov, 201-bet)

Yoki, *Yomg'ir ham sharillab quydi-ku shu choq,*
Xuddi kitoblarda yozilgan misol.

(A.Oripov, "Bahor kunlarida"205-bet)

Yoki, *Bu yo'l so'nggi yo'ldir,*
YAgona yo'ldir,
Ularni na shamol,
Na qoya to'sar.

(Shavkat Rahmon. "Ozodlik", 156-bet)

Yoki,

Gapirmasdan faqat bir odam,

Na osh erdi, na ichar, aroq

(Shavkat Rahmon. “Davra”, 168-bet)

2. O'zbek tilshunosligida yuklama tadqiqi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili grammatik qurilishini ilmiy o'rganish, boshlanish bilanoq, so'z turkumlari, ularning tarkibi, gapdagi vazifalariva sarasi haqidagi qarashlar yuzaga keldi. Bu sohani o'rganishda professor A.Fitrat, Q.Ramazonov, X.Qayumiylar o'zlarining izlanishlarini olib bordilar. So'z turkumlarini o'rganish olimlarda qiziqish, bu sohani yanada Chuqurroq o'rganishga ehtiyojlar paydo bo'ldi. Vaqtlar o'tishi bilan O.Usmonov, B.Azizovlarning tadqiqotlarida so'z turkumlariga berilgan ta'riflar, ularni tasnif qilish usul va mezonlari haqida ma'lumotlar yuzaga keldi.¹³

XX asr o'rtalariga kelib o'zbek tili so'z turkumlarini izchil ilmiy asoslarda o'rganishga bo'lgan harakatlar o'sib bordi. Masalan, 1957 yilda Faxri Kamol¹⁴ tahriri ostida nashr etilgan "Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili" kitobida taklif etilgan so'z turkumlari sirasi (Mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish; modal so'zlar; yordamchi so'zlar, yuklama, ko'makchi, bog'lovchi, undov va taqlid so'zlar)¹ o'tgan asr mobaynida barcha akademik nashrlar va darsliklarga deyarli o'zgarishsiz kiritib kelinmoqda.

Har qanday ishlar vaqtlar o'tishi bilan o'zgarib turadi. Shuning uchun ham so'z turkumlari sohasida qator o'zgarishlar vujudga keldi. So'z turkumlarining tarkibi, ularning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlar borasida bir qator arzirli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. O'zbek tili tadqiqiga sistemaviy tahlil usullarining kirib kelishi so'z va uning turkumlari borasidagi qarashlarni anchagina o'zgartirib yubordi.

Bu borada filologiya fanlari nomzodi I.Madrahimovning kuzatishlari diqqatga sazovor.¹⁵ So'zlarni turkumlarga ajratish mezonlari va mantiqiy asoslarini jahon tilshunosligi yutuqlari asosida talqin etgan olim o'ziga xos tizim taklif eta oldi.² so'zlar o'z mavhum grammatik ma'nolari, morfologik belgilari va

¹³ Fitrat. O'zbek tili qoidolari to'g'risida bir tajriba. Sarf. Birinchi kitob. Oltinchi bosma. Samarqand – Toshkent. 1930. –B. 28.

¹⁴ Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili/ F.Kamol tahriri ostida - Toshkent: Fan, 1957. –B. 303-305.

¹⁵ Madrahimov I. O'zbek tilida so'zning serqirraligini va uni tasniflash asoslari: filologiya fanlari nomzodi ...dis., Toshkent 1994-141-b.

grammatik kategoriyalariga qarab, so'z yasash, so'z o'zgartirish xususiyati hamda gapga bajargan vazifalariga qarab bir-biridan farq qiladi. So'zlarning mavhum grammatik ma'nosi, morfologik va sintaktik belgilariga qarab guruhlariga bo'linishi so'z turkumi deyiladi. Tilshunoslik nuqtai nazaridan so'zlarni mavhum grammatik ma'nolari, morfologik va sintaktik belgilariga qarab uch guruhga bo'lib olamiz:

1) mustaqil so'zlar (ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l);

2) yordamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama);

3) alohida olingan so'zlar (undov, modal, taqlid) so'zlarga ajratib olamiz.

So'z turkumlarini tahlil etish jarayonida, asosiy e'tiborni yuklamalar tadqiqiga qaratamiz.

Yuklamalar, ularning tarkibi borasida bir qator taniqli turkologlar fikr bildirib o'tganlar. Tadqiqotlarda yuklamalar borasida bildirilganqator xilma-xil fikrlar ichida eng keng tarqalgani va boshqa xil qrashlarda ham sezilib turadigani shundaki, yuklamalar so'z, gap yoki so'z birikmasiga qo'shimcha ottenkalarni beradigan birlik hisoblanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilimizda yuklamalar har xil qo'shimcha ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Yuklamalar butun bir gapga tegishli bo'lib, uning ma'nosini ta'kidlab, kuchaytirib kelishi, so'roq ma'nolarini bildirib kelishi ham, alohida so'zlarga bog'liq holda shu so'zning qo'shimcha ma'nolarini, ottenkalarini bildirib kelishi ham mumkin.

O'zbek tilidagi yuklamalarni monografik planda maxsus o'rgangan olim O.Bozorov haqli ravishda aytib o'tganidek, yuklamalar mohiyatini ochib berishda bu xil ta'riflar etarli emas. Ta'rif qo'shimcha ottenka ifodalovchi boshqa birliklar va yuklamalar qo'shimcha ottenka ifodalamagan o'rinlarni nazardan chetda qoldiradi.

O.Bozorov yuklamalar, yuklama-bog'lovchilar, bog'lovchi-yuklamalar, shuningdek, turli so'z turkumlari bilan bog'liq funktsional yuklamalar, ya'ni ravish bilan bog'liq yuklamalar, fe'l bilan bog'liq yuklamalarni ajratadi. Yuklamalarda sinonimlik, ko'p ma'nolilik, omonimlik xususiyatlarini namoyon etadi. Ularning presuppozitsiya tashuvchi ekanligiga ham e'tiborni qaratamiz.

Tadqiqotning asosiy maqsadi yuklamalarning soʻz turkumlari sirasidagi oʻrinini belgilashdir. Ushbu maqsadni amalga oshirishda bir qator vazifalarni nazarda tutamiz;

- 1) *soʻz turkumi va uning tashkil etuvchisini taʼriflash;*
- 2) *soʻz turkumlarini ajratishning mantiqiy mezonlarini aniqlash;*
- 3) *soʻz, leksima, soʻz shaklini farqlash;*
- 4) *mustaqil va yordamchi soʻzlarni farqlash;*
- 5) *soʻz turkumlarining munosabatlaridagi oʻziga xosliklarni kuzatish;*
- 6) *yuklamaga taʼrif berish;*
- 7) *yuklamalar sirasi va funktsional-semantik guruhlarini aniqlash;*
- 8) *yuklamalarning boshqa yondosh hodisalar bilan munosabatini tizimini tiklash;*
- 9) *yuklamalarning yordamchi soʻzlar oʻrnida tutgan oʻrnini aniqlash.*

Yuklamalarning tadqiqi jarayonida quyidagi yangiliklar qoʻlga kiritilgan:

- 1) *soʻzlarni turkumlarga ajratishning mantiqiy va lisoniy mezonlarini oʻzaro munosabatda koʻrib chiqilgan;*
- 2) *soʻzlarni turkumlarga ajratishda yuklamalarning tutgan oʻrni koʻrib chiqilgan;*
- 3) *soʻzlarni turkumlarga tasniflash mezonlari sirasiga qiyoslash mezonini kiritilgan;*
- 4) *soʻz turkumining birligi va uning til tizimida tutgan mavqei belgilangan;*
- 5) *yuklamalar sirasi tadqiqotda taklif etilgan mezonlar asosida koʻrib chiqilgan va guruhlangan;*
- 6) *yuklamalarning yondosh hodisalarga nisbatan tutgan oʻrni ochib berilgan;*
- 7) *yuklamalarning yordamchi soʻz turkumlari sirasida tutgan oʻrni belgilangan.*¹¹⁶

¹⁶ Isaqov Z.S. Oʻzbek tilida soʻz turkumlarining oʻzaro munosabati va unda yuklamalarning oʻrni. Filologiya fanlari nomzodi...dis.-Fargʻona. 2005.B - 5.

Z.Isaqov yuklamalar sirasiga quyidagi birliklarni kiritgan: -ki, -da, -u (-yu), ham, -ku, -mi, -chi, -a (-ya), faqat, na, na..., tugul, oq (yoq), -gina, -dir, -gin, qoq, aqlli, nahot, nahotki, agar, mobodo, basharti, atigi, nihoyatda, tim, liq, lim, g'irt, g'arq, jiqqa, -jon, -oy, -xon, -bek, -poshsha, -bonu, xuddi, naq, naqadar kabi.

Mazkur yuklamalarni quyidagi semantik guruhlarga ajratgan:

- 1) *kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari: -ki, -da, -u (-yu), ham, -ku, aqlli, -a (-ya), naqadar, atigi, nihoyati, tim, liq, lim, g'irt, g'arq, jiqqa;*
- 2) *taajjub yuklamalari: nahot, nahotki;*
- 3) *ayiruv yuklamalari: faqat, -gina;*
- 4) *shart yuklamalari: agar, mobodo, basharti;*
- 5) *sub'ektiv baho yuklamalari: -jon, -oy, -bek, -xon, -poshsho;*
- 6) *inkor yuklamalari: na... na, tugul;*
- 7) *so'roq yuklamalari: -chi, -mi;*
- 8) *aniqlov yuklamalari: xuddi, qoq, naq;*
- 9) *gumon yuklamasi: -dir*

Yuklamaning asosiy xususiyatidagi quyidagi ikki jihatni aniqlangan.

- 1) *ular so'zning tarkibiga aniq singib ketadi. Ma'nosi so'z semasiga bitta okkazional sema bo'lib qo'shiladi;*
- 2) *ularning vazifa bajarish jarayoni muayyan gap bo'lagining faqat semantik jihatiga ta'sir etmaydi. Shuningdek, yuklamalarning boshqa so'z turkumlariga va yondosh hodisalarga munosabati chizmada yorqin aks ettirilgan.*

Yuklamalarning o'rganilish tarixi turkiyshunoslikning eng ilk darvlaridan shu kungacha bo'lgan qarashlarda aks etadi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida, "At tuhfatus zakiyatu fil-lug'otit turkiya" lug'atida, Fitrat asarlaridagi yordamchi so'zlar haqida fikrlar mavjud.

Yuklamalar semantikasi borasida ortiqcha mubohasasiz shuni aytish mumkinki, yuklamalar to'liq gapga yoki uning bir qismiga qo'shimcha ma'no jilosi berish uchun xizmat qiladi.

Ana shu qo'shimcha ma'no jilolarini ifodalash uchun ayrim o'rinlarda yordamchi so'zlar va ba'zi mustaqil so'zlarning yuklamaga xos xususiyatlar kasb etishni kuzatish mumkin. Buni "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan olingan quyidagi so'zlar misoli ko'rish mumkin:¹

O'z. egalik qo'shimchasi bilan kelib, ish-harakat shu qo'shimchadan anglashilgan shaxs tomonidan shaxsan, boshqalarning aralashuvisiz bajarilishini ta'kidlash uchun qo'llanadi. Masalan,

Go'zal g'ozning halokatini

Bitta o'zim... Bir o'zim ko'rdim.

(“Qishki bog” 356-b)

Qani. So'roq yoki undov gapda afsus, taajjub kabi ma'nolarni bildiradi. Masalan,

“Qani she'rda gullar raqsi,

Qani bulbul navosi?”

Mana. Ko'rsatish olmoshlari oldida kelib, kuchaytiruv va ta'kid bildiradi:

Egam, mana bu – yer,

Mana bu – Osmon ...

Nega faqat o'zin ko'rar odamlar?

(Usmon Azim, 377-b)¹⁷

Yoki: *Yashash shudir*

Mana shu – yashash...

(Usmon Azim, 357-b)

Shu kitobdan olingan keyingi misollarni quyidagicha belgilanadi.

Undov gapda hayrat, kinoya, taajjub kabi ma'nolarni bildiradi:

Ana husni, mana malohat!

Bir. Ajratish, ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Masalan,

¹⁷ O'zbek tilining izohli lug'ati - Moskva Rus tili, 1981 II t – B. 494.

*Bir havasim keldi,
Qani bizdayam
Bo'lsaydi shu xalqning ruhiy quvvat
Shavkat Rahmon degan*

*Bir o'jar shoir,
Bir kun qaytadan yaraladimi?
(Shavkat Rahmon, 203-b)¹⁸*

*Hali bir senga ham,
Bir menga ham ayondur,
Yaratibsan adam,
Odamlikcha qoldir.
(“Ruhlar isyoni”, 229-b)²¹⁹*

Kimsan. Nazarda tutilgan shaxsning darajasi yuqoriligi ta'kidlash uchun ishlatiladi:

*Kimsan – Mizrab Mahmudiy?
Kimsan – akademik.*

Qoq. So'zi “xuddi, naq, aniq, ayni” kabi jajji mushti ma'nolarini ifodalaydi:

*Naq g'unchadek,
Bu – o'limga isyondir*

Xo'p, Xo'p. Gapning qoq beliga tepibmizda-a?

Shu kitobdan keltirilgan keyingi misollarni quyidagicha belgilanadi:

Yuklamalar guruhi masalasi bir qarashda ancha soddaga o'xshab ko'rinadi. Ammo aniq tiniq sira taqdim etilgan emas.

Tadqiqotimiz davomida ma'lum bo'ldiki, yuklamalar guruhini turli olimlar turlicha tasavvur qiladilar. Bu guruhni ajratishda, belgilashda yuklamalarning modal so'zlarga munosabati juda qiziqarli. Modal so'zlar nomidan ko'rinib

¹⁸ Shavkat Rahmon.,)Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1997. 208-b

¹⁹ Vohidov E. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2001. II jild.

turibdiki, modal ma'nolar ifodalashga xizmat qiladi. Yuklamalar ham "qo'shimcha" ma'nolar ifodalash uchun xoslangan.

V.V. Vinogradovning fikricha, modal so'zlar yuklamalarga yaqin keladi. Ularning farqi, uning qarashlariga ko'ra, modal so'zning to'lig'icha gapga, yuklamaning esa so'zga tegishli bo'lishidir.²⁰

Ko'rinadiki, u modal so'z va yuklamalarni farqlash tarafdori. O'z fikrini shakllantirishda I.I.Meshaninovning fikrlariga suyanadi. So'z turkumlari va gap bo'laklarining munosabatiga katta e'tibor bilan qaragan olim gap tarkibida ma'no ifodalash uchun xizmat qiluvchi qanday bo'lak ham yuklama bo'la olmasligini ta'kidlagan edi.²¹

Yuklamalar muayyan so'zga (atovchi birlikka) qattiq bog'lanadi, enkliza holatida so'zning fonetik tarkibiga kirib ketish ham mumkin. Fonetik butunlik sezilmaganda ham, semantik bog'liqlik juda kuchli bo'ladi.

Modal so'zlar vazifasiga ko'ra yuklamalarga yaqin kelsa-da, ular, darhaqiqat, butun gap mazmuniga tegishli bo'lib, muayyan so'z (atov birlik) bilan singishib ketmaydi. Gapning tarkibida "kirish so'zlar" deb atalgan vazifada kelishishga, odatda, shuning uchun ham modal so'zlar moslashadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bizningcha, yuklamalar tarkibiga nega desang, bo'lmasa, aksincha, demak, bordi-yu, aytgandek, avvalambor, boringki, xayriyat, afsus, taajjub kabi so'zlarni va boshqalarni kiritib bo'lmaydi.

Aftidan yuklama-bog'lovchilar atamasi ham yordamchi so'zlarning o'zaro funktsiyadosh bo'la olishi imkoniyatidan kelib chiqib o'z ahamiyatini yo'qotadi.

Shulardan kelib chiqib, biz o'zbek tilshunosligidagi tadqiqotlarga asoslangan holda yuklamalar guruhiga quyidagilarni kiritamiz: -ki, -ham, -ku, -da, -u (-yu), -mi, -chi, -a (-ya), faqat, -na... na, tugul, -oq (yoq) -gina, -dir, -gin, qoq, aqalli, nahot, nahotki, agar, mobodo, basharti, atigi, nihoyati, tim, liq, lim, g'irt, g'arq, jiqqa, -jon, -oy, -xon, -bek, poshsho, -bunu, xuddi, naq, naqadar.

²⁰ Vinogradov V.V. Russkiy yazik.- Moskva: Visshaya shkola, 1986.- S. 597.

²¹ Meshaninov I.I. Chleni predlozheniya i chasti rechi. - L: Nauka, 1978 - S. 387.

²² Abdullaev A. -gina intensivlik ifodalovchi affiks sifatida // O'TA. № 5 1973. -B. 73-75.

²³ Xojiev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. -Toshkent: O'qituvchi, 1985. -B. 46-47.

3. Yuklamaning ma'no turlari

Ko'plab darsliklarda va boshqa ilmiy manbalarga asoslangan, o'zbek she'riy nutqiga xos yuklamalarni quyidagi ma'no guruhlariga ajratish mumkin.

1 Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari: -ki, -da, -u, (-yu), -a (-ya), aqalli, ham, liq, lim, g'irt, g'arq, jiqqa kabi.

Kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari o'zi aloqador gap bo'lagi ma'nosiga diqqatni tortish uchun, uni kuchaytirish uchun qo'llanadi.

A.Xojiev bunday yuklamalar sirasiga ham, axir, -ku, -oq kabilarni kiritadi.

O'zbek she'riy nutqida kuchaytiruv-ta'kid yuklamalaridan kabilar faol qo'llanadi:

Ham yuklamasi o'zi kuchaytirib yoki ta'kidlab ko'rsatadigan so'zlardan keyin keladi:

Xoslarga ham rahmim keldi

Pastlarga ham rahmim keldi

(Usmon Azim)

O'zbek she'riy nutqida ham yuklamasi ta'kidlanayotgan so'zdan oldin kelishi ham uchraydi. Ham yuklamasi takrorlangan holda, faqat takrorlangan bo'laklar oldidagina uchrashi mumkin. Bunday choqda takrorlangan sanash ohangi bilan bog'langan bo'ladi:

Ulug' elning men ko'rar ko'zi

Ham farzandman, ham unga ota

(Usmon Azim, 195-b)

Ham yuklamasi: 1) ta'kid ma'nosini bildiradi. Bunday holda u: a) mustaqil so'zlarni ta'kidlab ko'rsatadi:

Ey, barg, sening kabi

Men ham sarg'aydim

Yoki: *O'rtamizda begonalar nafasi ko'p,*

Poklikning ham, gunohning ham sharpasi ko'p.

(Usmon Azim, 284-b)

b) ko'makchili birikmani ta'kidlab keladi:

*Sen hammamizning uchun ham
Yashashing kerak*

(E.Vohidov, 318-b)

v) shuning uchun bog'lovchisidan keyin kelib, oldingi gapdagi ma'noni ta'kidlab keladi:

*Shuning – Chun ham
Dilimizni –
Ko'marmishlar yog'duga.*

(E.Vohidov, 231-b)

2) to'siqsizlik ma'nosini bildiradi. Bunda u shart maylidagi fe'llar va o'rin kelishigidagi sifatdoshlardan keyin keladi:

*Mayli majbur qilsang, kuch ishlatsang ham
Ariq ishlarida jadal va shitob
Berib turgil menga har kun sarhisob*

(E.Vohidov, 347-b)

*Boshingizdan oltin sochganimda ham
O'shal aslingizcha qolursiz, ayon*

(E.Vohidov, 328-b)

*Umr ham o'tganday ...
Go'yo bir kunda
Nastarin guliday ochilib so'ldik*

(Shavkat Rahmon, 332-b)

-da yuklamasi shart maylidagi fe'llardan so'ng kelib, tusiqsizlik ma'nosini anglatish mumkin. Bunday chog'da u ham yuklamasi bilan sinonim bo'ladi:

*Ko'paysa-da, ajinlar xarchand,
Oqarsa-da, yillardan boisi*

(E.Vohidov, 126-b)

Ko'chat ham o'tkazardim ko'p yaxshi niyat bilan,

Bilsam-da jiziraga bera olmasin bardosh.

(Abdulla Oripov, 303-b)

Ayrim o'rinlarda –da yuklamasi oddiy nutqdagi kabi she'riy nutqda ham va bog'lovchisi o'rnida qo'llanadi:

Mendan madad ol-da,

Endi o'zing uch

-u (yu) yuklamasi aniqlik maylidagi fe'llardan so'ng kelib, ish-harakatning bajarilishidagi tezlik ma'nosini bildiradi. Masalan,

Bu so'zlarni eshitadi-yu

Faryod qildi donishmand

(E.Vohidov, 203-b)

-u (yu) yuklamasi uyushgan bo'laklar oldida bog'lovchi vazifasini bajaradi va u va va bog'lovchisiga mos keladi:

Qanot bo'ldi pok niyat –u ezgu ishtiyoq

Ma'suliyatsizlikning farishtasi uchdi shaharga

(E.Vohidov, 90-b)

-oq, -yoq yuklamalari bosh, o'rin, chiqish kelishigidagi otlardan so'ng kelib, kuchaytirish bildirsa, -i (-b) affiksli ravishlardan va bilan ko'makchisidan keyin kelib, bir ish-harakat ketidan ikkinchisining tezlik bilan sodir bo'lishini anglatadi:

Bir zumdayoq devorlar oshib,

Ko'chalarga tarqab ketdilar.

Darchalarga yuzlarin bosib,

Bolalardan qarar kattalar

(Shavkat Rahmon, "Manzara", 10-b)

Bulardan tashqari intensiv shakl hosil qiluvchi unsurlar²⁴ ya'ni qip-qizil, to'ppa-to'g'ri, yam-Yashil so'zlaridagi qip-, to'ppa, yam- kabi qismlar ham yuklama sanaladi. Bunday yuklamalar she'riy nutqqa tasviriylilik bag'ilaydi va so'z

²⁴ O'zbek tili grammatikasi.- Toshkent: Fan, 1975. I t. –B. 576.

²⁵ Xojiev A. O'sha lug'at, 13-b, Nurmanov A., Sobirov A., Yusupovaa SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylarning 2-bosqichi uchun darslik. - Toshkent: Sharq, 2002. –B. 322

ma'nosini kuchaytirish, shuningdek ta'kid ma'nosini berish uchun ishlatiladi.
Masalan,

Boshqa oyna toping!

To 'ppa-to 'g 'ri oyna!..

(Usmon Azim, 289-b)

Yoki: *shodlikdan jiqqa ter bo 'libsan, oshnam.*

(E.Vohidov, 329-b)

Ayrim manbaalarda bu yuklama turi ayiruv-chegaralov yuklamalari deb beriladi. Odatda o'zi aloqador gap bo'lagi bildirgan narsa-hodisa, harakat kabilarni boshqasidan ajratib, chegaralab ko'rsatadigan yuklamalar ayiruv-chegaralov yuklamalari deyiladi. Bunday yuklamalar sirasiga -gina, faqat yuklamalari kiradi.

O'zbek she'riy nutqida ham ayiruv-chegaralov yuklamalari aynan yuqoridagi ma'nolarda qo'llanadi:

Qaytmasdan. Abadulabad

Mayin to 'lqin singari endi

Yolg 'iz oyning tagida faqat

Tun erkalab tebratar erni

(Shavkat Rahmon, "Manzara", 98-b)

Bunday yuklamalar turli so'z turkumlari bilan kelib, ularni chegaralab, ajratib ko'rsatib o'tish uchun qo'llanadi:

Ey qotil, ozgina sabr qil yana!

Qatlim yaqin, taqdirim shudir,

Sut berayin faqat bolamga

(E.Vohidov, 314-b)

-gina (-qina, -kina) yuklamasi: mustaqil so'zlar ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, ayrim fe'l shakllari va ayrim ko'makchilar bilan, tufayli, uchun va shu kabilardan so'ng kelib, ayirib ko'rsatish, chegaralash ma'nolarini bildiradi:

Mo 'jaz hovli

Pastgina devor

Pastakkina tandiri bilan:

Yashar edi kichkina bir chol
Mening holim sizgagina ayon.

(E.Vohidov)

b) predmet yoki harakat belgisini bildiruvchi so'zlardan so'ng kelib predmet yoki harakat belgisini o'sha belgi kamligi bilan birga, o'sha belgi kamligini yo kuchsizligini ham ifodalaydi. Masalan,

Sekingina yashar edi u,
Na shodligi ayon, na dardi
Gazetadan ko'z olmay tinchgina
Eshitardi xotindan dashnom.

(E.Vohidov, 146-b)

Faqat yuklamasi asosan, o'zi aloqador bo'lgan so'z oldidan keladi lekin poetik asarlarda u o'zi aloqador bo'lgan so'zdan keyin kelishish ham mumkin:

Faqat ko'pchilikka ko'p narsa kerak,
Barakali bo'lsin shuning – Chun qazon

(E.Vohidov, 287-b)

Yoki: *Takror aytamanki, ko'p yozing faqat.*

(E.Vohidov, 288-b)

Faqat va -gina yuklamalari birga kelib (faqatgina kabi) ayirib, chegaralab ko'rsatish ma'nosini yana kuchaytiradi:

Faqatgina – bir gunohim
Onajonim oldida

(E.Vohidov)

Faqatgina, maslahatim hech bir narsani
Berkitmay ayt, - ular hammasini biladi.

2. Taajjub yuklamalari: nahot, nahotki.

Ko'p ilmiy manbaalarda taajjub yuklamasi qayd etilmaydi. Jumladan, o'zbek tili lingvistik terminlar lug'ati taajjub yuklamasi qayd etilmagan. Ayrim

darslik va qo'llanmalarda taajjub yuklamasi so'roq yuklamasi bilan qo'shib berilgan, lekin bu ma'noviy guruhga nahot, nahotki yuklamalari kiritilmagan.¹²⁶

O'zbek she'riy nutqida nahot, nahotki yuklamalari faol qo'llanadi:

Bu adovat

Nahot, mangu?

Nahot, bitmas bu qiron?

(E.Vohidov, 317-b)

Nahotki, bu sensan?

(E.Vohidov, 318-b)

4. Shart yuklamalari nutqda shart va to'siqsiz ergash shapli qo'shma gaplarda shart va to'siqsizlik ma'nosini ta'kidlash uchun qo'llanadi.

A.Xojiev bunday yuklamalar sirasiga agar, bordiyu, mobodo, basharti kabilarni kirtadi.²⁷ Z.Isaqov esa agar, mobodo, basharti yuklamalarini kirtadi.²⁸

Mazkur yuklamalar o'zbek she'riy nutqida faol qo'llanadi:

Agar voiz bo'lsa aktyor o'zi ham

Bunday zotlar, axir, emas bizda kam

Biz mobodo, qilsak gunoh

Har qanchaki xilvatda, oliy ruhlar bo'lur ogoh,

Jazo bo'lar albatta

(E.Vohidov)

5. Inkor yuklamasi: na... na..., tugul. Inkor yuklamasi na... na... uyushiq bo'laklar va qo'shma gap tarkibidagi ayrim gaplar oldidan kelib, ularning mazmunini inkor etadi, bo'lishsizga aylantiradi. Inkor shakli gap bo'laklari va gaplar oldidan kelganda, bo'lishsizlik kuchaytiriladi, ta'kidlanadi. Bu o'zbek she'riy nutqida ham kuzatiladi:

Men-ku, yolg'iz edim,

Na otam,

Na onam bor, na oilam bor.

²⁶ Nurmanov A. va boshqalar. O'sha darslik, 322-bet.

²⁷ Xojiev A. O'sha lug'at, 108-b.

²⁸ Isaqov Z. O'sha asar.

Yoki: *Sekingina yashar edi u,*
 Na shodligi ayon, na dardi

(E.Vohidov, 138-b)

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ayrim tilshunoslar, jumladan, A.Xojiev na..., na... ni inkor bog'lovchisi sifatida ko'rsatib, uni uyushiq bo'laklar yoki ayrim gaplar oldida takror qo'llanib, inkor ma'nosini ta'kidlab ko'rsatadi va ta'kidlab ko'rsatuvi bog'lovchi deb izohlaydi. Masalan,

Bu yo'l so'nggi yo'ldir,
Yagona yo'ldir,
ularni na shamol,
na qoya to'sar.

(Shavkat Rahmon, 156-b)

1. So'roq yuklamalari: -chi, -mi yuklamasi turli so'zlarga qo'shilib, so'roq ma'nosini bildiradi.

So'roq yuklamalari o'zbek she'riy nutqida eng ko'p va faol qo'llanuvchi yuklamalar qatoriga kiradi.

Onam bormi? Tirikmi yo o'lganmi? Rost ayt
London, Parij shaharmi? Bir choyxonasi yo'q.

(E.Vohidov)

So'ng qarab qo'ydingiz atrofingizga,
Hech kim sezmadimi, payqamadimi

(Shavkat Rahmon, 237-b)

-chi yuklamasi so'roq ma'nosini, kuchaytirish, harakatga undash ma'nolarini bildiradi. Masalan,

Yo'qsa, nega vatanga qaytib bormadi?
O'zing ayt-chi?

Kuchaytirish: Uning o'zi-chi, nima dedi? Harakatga undash: *Qani xat yoz-chi!*

Yoki: *Bu yoqqa kelsang-chi!*
 (E.Vohidov)

Bulardan tashqari, -a, -ya va nahot, nahotki yuklamalari ham so'roqni ifodalash mumkin:

A? Ochiqroq ayt, bir gap bormi?

Jonga ketgan, qahramonlik qilgan Iskandar.

Bolamidi-ya?

(E.Vohidov)

Nahotki sevgiga shudir tamanno?

Nahot go'zal uchun faqat, faqt dod!

(H.Olimjon)

Ba'zan nahotki yuklamasi ritorik so'roq berish asosida gap mazmunidan so'zlovchi kutgan xulosani chiqarish uchun qo'llanadi.²⁹

Nahotki erimiz chapga aylanib,

Nahotki daryolar oqar teskari:!

(G'.G'ulom)

Bular yashaydilar

Qaysi kunlarda,

Qayga boradilar, kimga yukinib?

(Shavkat Rahmon, 224-b)

Ko'rinadiki, nahotki yuklamasi ritorik so'roq gaplar tarkibida so'roq ma'nosini va unga qo'shimcha tarzda taajjub ma'nosini ham ifodalaydi.

2. Aniqlov yuklamalari: **xuddi, naq, qoq.**

Aniqlov yuklamalari harakat va predmetlarni aniqlash, boshqasiga o'xshatish ma'nosini bildiradi:

Xo'p, Xo'p. Gapning qoq beliga tepibmizda-a?

Bizlar xuddi qo'sh kabutar edik, sen iblis

Qarshi bo'lib changal solding. G'unchani uzding.

(Usmon Azim)

²⁹ Jamoa. Hozirgi o'zbek adabiy tili. - Toshkent: O'zbekiston, 1992. -B. 390.

3. Gumon yuklamasi –dir turli turkumga xos so'larga qo'shilib, gumon ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi.

Kingadir zulm qildi,

Kingadir – sahovat (E.Vohidov)

Kardiogramma

Nimadir bu xat?

Turfa chiziqlarning nedir ma'nosi?

Balki jon rishtasi degani shudir.

Ko'rinadiki, mazkur she'riy parchada –dir gumon yuklamasi so'roq olmoshlariga qo'shilib, gumon, ya'ni noaniqlik ma'nosini ta'sirchanroq ifodalashga xizmat qiladi.

Yuklamalarning asosiy xususiyati ikki jihatda ko'rinadi:

1) ular so'zning tarkibiga to'liq ketadi, ma'nosi o'z semasiga bitta okkazional sema bo'lib qo'shiladi;

2) ularning vazifa bajarish jarayoni muayyan gap bo'lagining faqat semantik jihatiga daxldor bo'lib, ularning tuzilishi va o'rniga ta'sir etmaydi.

Ko'rsatilgan boshqa hamma holatlar shaklan har qanday o'xshashligidan qat'i nazar yuklama haqida gap bormayotganini ko'rsatadi.

Yoki:

O'rmonda bo'ri ham, hatto janob she'r,

Bir-birin turtishib: - Tulkisan-a, der!

(A.Oripov)

Bu gapdagi va “-a” yuklamalari gap tarkibida nopredikativ modallik ifodalanmoqdayu ularni gap tarkibidan tushurishi faqat gapning ifodaviyligiga ta'sir qilib, mazmun planini o'zgartirmaydi. Masalan,

Og'ushimda bo'lgan yorim qayliq bo'libmas,

Ostonamdan kelinoyim bo'lib kirdi-ya

(E.Vohidov)

Bu misolda ham yuklama bajarayotgan vazifa ko'rsatilganidan farq qilmaydi. Umuman, har qanday yuklamaning o'rni gapning ekspressiv

tomonigagina qarashli bo'lib, tuzilishiga va mazmun jihatlariga tegishli emas. Bu quyidagi she'riy parchada ko'rinadi:

Sharmandalik bo'ldi-ya!

Qirq uch yilda uchrashding-a!

O'zing kabi bizni baxtiqaro qilding-ku,

Yurtimizda yurtimizdan judo qilding-ku

(E.Vohidov)

- Voy bechora bolagina,

Dard zaptiga opti-ku!

(A.Oripov)

Ammo hamma yuklamalarda ko'rsatib o'tilgan xususiyat bir xil darajada, deb bo'lmaydi. Masalan, quyidagi gaplarda qo'llangan "ham" yuklamasi gap tuzilishidagi o'rni jihatidan ko'rsatib o'tilganlaridan aytarli farq qilmasa-da, ammo mazmun ifodalashga ko'ra ham, faqat ekspressiv deb baholab bo'lmaydi:

Boshingizdan oltin sochganimda ham

O'shal aslingizcha olursiz, ayon

Yoki:

Garchi chiqolsam-da, bu erdan qochib,

Qayda yurolardim yuzimni ochib?

(E.Vohidov)

Har qanday so'z turkumlari kabi yadro qismidan uzoqlasha borayotgan bunday birliklar, dialektik izchillikni ta'minlab yondash turkumlar bilan bog'lovchi birliklarga aylana boradi. Ayrim yuklamalar gap konstruktiv va kommunikativ plani shu qadar ta'sir o'tkazadiki, ularni yuklamalar sirasidagi o'rni ham shubhali bo'lib qoladi. Masalan, qiyoslang:

1. *Bu yoqqa kelsang-chi!*

2. *–Axir doim takrorlaysiz – men avval xalqni*

Keyin jigargo 'shalarni o'ylayman, deysiz.

- Iskandar-chi?

Birinchi misoldagi –chi va ikkinchi misoldagi –chi ning gapdagi mavqeining turlichaligi sezilib turibdi. Birinchi –chi faqat ekspressiv ma'no ifodalab, uning

yuklamaligi hech qanday shubha tug'dirmaydi. Ikkinchisidan esa gapning kommunikativ maqsadini o'zgartiradi.

Bunday oraliq holatlar ancha ekanligi yuklamalarning ichki munosabatlari tizimini o'rganishga qiyoslash mezonini tadbiq etish jarayonida ko'rinib qoladi. Bunday qo'llanishlarda yuklamalar gapning konstruksiyasini o'zgartirmaydi, biroq ifoda maqsadiga ta'siri ancha kuchli bo'ladi. Bu xil holatlar juda qiziqarli bo'lib, yuklamalarni shakl yasovchilarga juda yaqinlashtiradi:

Xo'p, Xo'p. Gapning qoq beliga tepibmizda-a?

(E.Vohidov)

Orzularim osmon qadar bo'lsa ham,

Mendan shoir chiqmas ekan, bildim men.

Bizni eslab har zamonda bir.

Xat yozib ham qo'ymaysan bo'tam.

(E.Vohidov)

Shuningdek, ayrim yuklamalar mavjudki, ular so'zning semem tarkibiga bitta uzv bo'lib qo'shilib uning mazmun qurilishiga Chuqur kirib boradi. O'zi qo'shilgan so'zning mazmunini o'zgartirish orqali gapning ifoda maqsadiga ham ta'sir ko'rsatadi.

*Yaxshiyam dunyoda quyosh bor, gul bor,
Qaydadir meni ham tushungan dilbar.¹³⁰*

(“Ilyos”, 138-b)

Qiyoslang:

Yaxshiyam dunyoda quyosh bor, gul bor,

Qayda meni ham tushungan dilbar?

Yoki, Shoir buni na xis etdi,

Na ko'rdi, na quvondi.

Gunohkorman na ollohim,

Na vijdonim oldida.

(E.Vohidov)

³⁰ M.Yusuf. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2007.

Ko'rinadiki, yuklama asosan so'z mazmun planiga aloqador bo'lsa-da, ba'zida gap doirasida muayyan vazifa bajara oladi. Ammo bu vazifa yuklamadan emas, yuklama bog'langan so'zning gap tarkibida egallagan mavqeidan kelib chiqadi. Yuklamalik xususiyati yuklamalarning hamma qo'llanishlarida sezilsa-da, boshqa yondosh hodisalar tomon siljish holatlari ham keng tarqalgan. Ammo shu siljishlarni hisobga olmay turib, yuklamaning til tizimidagi o'rnini belgilab bo'lmaydi.

4. Yuklamalar intonatsiyasi

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida yuklamalar "so'z, so'z birikmasi yoki gapga qo'shimcha ma'no qo'shish xususiyatiga ega bo'lib ularning vazifasini bajara olmasligidir".³¹ Yuklamalar so'zga qo'shimcha ma'no berish bilan birga intonatsiya, ya'ni ohang ham vujudga keltiradi. Qo'shimcha grammatik ma'no bilan yuzaga chiqadi. Masalan,

Qirq yil yurtga qadam qo'ymay benomi nishon

Yurganingni o'zin gunog' sanamaysanmi?!

(E.Vohidov)

Agar yordam qilsangiz-ku jannat ham tayin.

Ancha-muncha savobim ham bodir, o'ldimi?!

Qarasangiz bo'lar edi tezroq, amaki

(A.Oripov, "jannatga yo'l")

- Hoy, senmi bu, er yutkur,

Imoningdan kechdingmi?!

Aljiraysan yo to'yda,

Aroq-paroq ichdingmi?!

Ushbu gapda so'roq ma'nosidan tashqari, ajablanish, hayratlanish ishonmaslik, achinish, ohanglari ham mavjud bo'lib, gapga emotsionallik bag'ishlangan. Nutqda yuklamalarning biror bir ma'no va ohangni yuzaga chiqarishi insonning ruhiy holati bilan bog'liqdir. Demak, ma'no va ohang so'z yoki gapda bir-birini to'ldirib, mazmunini asl maqsadni yuzaga chiqaradi. Bunda urg'uning o'rni va ahamiyati juda kattadir. U ko'p hollarda

yuklamaga tushadi. Masalan,

1. O'zing ayt-chi

2. O'zing aytchi

(E.Vohidov)

³¹ Shoabduraxmonov Sh va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent: O'qituvchi, 1980 –B. 432–b

³² Bozorov O. O'zbek tilining yuklama kategoriyasi // o'zbek tili va adabiyoti, 1997. -№. 2. – B. 24.

Keltirilgan birinchi misolda iltimos, so'roq ohangi; ikkinchi misolda esa do'q o'rni ohangi ifodalanganligini ko'rish mumkin.

Agar yuklamalar qatnashgan gaplarga his-tuyg'u, hayajon aralashsa, ular o'ziga xos ohangga ega bo'ladi. Bu hol deyarli barcha yuklamalarda kuzatiladi. Bir xil so'z birikmasi yoki gapda ohang (intonatsiya) har xil bo'lishi mumkin. odatda gapda emotsional-ekspressiv bo'yoq berish ham talaffuzga bog'liq:

“Vijdon.... vijdon... o'sha vijdon bormi o'zingda”?

Ba'zan meni o'ylaganda qiynalmaysanmi?

(normal intonatsiya);

Ba'zan meni o'ylaganda qiynalmaysanmi...?

(ajablanish ohangi)

(E.Vohidov)

Yoki: *Balki qayta ko'rishmasmiz tasodifni ko'r,*

Qirq uch yilda uchrashding-a?

(normal intonatsiya);

Qirq uch yilda uchrashding-a?

(achinish ohangi)

Ko'rinib turibdiki, agar agp normal inotonatsiyada aytilsa, unda faqat so'roq ma'nosi ifodalanadi. Agar gapga his-tuyg'u (emotsiya), ya'ni mensimaslik, ajablanish yoki hayrat intonatsiyasi qo'shilsa, so'roq ma'nosi undan ifodalanadi.

Qiyoslaymiz:

Tuman asr kechmishidan darakasan,

Yurtim uchun ham tomir, ham yuraksan

(E.Vohidov)

Yurtim uchun ham tomir, ham yuraksan...?

Birinchi jumalada ham yuklamasi ta'kid ma'nosini anglatish bilan birga, sanash ohangini ham ifodalagan. Ikkinchi jumlada esa sanash ohangidan ham ko'ra, ko'proq ishonmaslik, hayratlanish ohanglari etakchilik qiladi. Yoki:

*Mo'jaz hovli,
Rastgina devor,
Pastakkina tandiri bilan.
Yashar edi kichkina bir chol
Kichkina bir kampiri bilan*

(E.Vohidov)

-kina, -gina yuklamasi qatnashgan gapni talaffuz tomondan o'zgartirsak. Unga har xil ohang berishimiz mumkin, ya'ni urug'ini "pastgina, pastakkina, kichkina" so'zlarga tushursak, u holda o'z-o'zidan uqtirib ko'rsatish ohangi vujudga keladi. Ushbu gapga erkalash va havas qilish ohangini berish ham mumkin.

Inkor yuklamasi bo'lgan na..., na... gapda inkor ma'nosini uqtirib ko'rsatar ekan, o'z navbatida, urg'u olsa, norozilik, sanash ohanglari anglashiladi.

Masalan:

*Men-ku yolg'iz edim,
Na otam
Na onam bor, na oilam bor*

(E.Vohidov)

Yoki, qiyoslaymiz:

*"Ko'p ajabdur dunyo ishi
Na so'nggi bor, na boshi bor".*

(normal intonatsiya)

"Na so'nggi bor, na boshi bor..."

(Qo'rquv, hayratlanish ohangi)

O'zi aloqador bo'lgan so'zga gumon, aniqsizlik ma'nosini yuklovchi –dir yuklamasi gapga mavhum tus berish bilan birga, kesatiq, ikkilanish va boshqa ohanglarni yuzaga chiqaradi.

Masalan, *Ichay desa -cho'tir yurak,
Ichmay desa –tashnadir...*

(E.Vohidov)

Keltirilgan misolda so'roq ohangi ifodalangan, lekin undan oldin tushkunlik, achinish ohangi ham ifodalanganligini sezish qiyin emas.

Bu hayotning yarmi rohat

Yarmi g'amdir. (E.Vohidov)

Bu misolda esa uqtirish va ta'kid ma'nosini kuchli ifodalangan.

Aniqlov yuklamasi xuddi esa so'z ma'nosini aniqlab ko'rsatish uchun xizmat qiladi va bu yuklama gapga asosan so'roq yuklamalari –a, -ya bilan birga kelganda kuchli emotsional ruh bag'ishlaydi. Shu bilan birga hayratlanish, hayajon ohanglarini vujudga keltiradi.

Xuddi adashib qolgandaymiz

kuppa-kundaz kuni-ya?

Ayiruv va chegaralov yuklamalari –gina, -kina. –qina so'zlarida chegaralab ko'rsatish, ma'no jihatdan ajratish uchun qo'llanib so'zlarga yumshoqlik intonatsiyasi - erkalash kichraytirish, sevimlilik uqtiruv ohanglarini beradi. Masalan,

Onaginam, onaginam ey sho'r peshona

Mendan baxtsiz bu dunyoda bir zot bomikin.

(E.Vohidov)

Bu misolda erakalash va sevimlilik ohanglari kuchli ifodalangan.

Yoki: Sekingina yashar edi u

(E.Vohidov)

Bu misolda esa uqtirish ohangi ifodalangan.

Bir xil yuklamalarning o'zidan talaffuz jarayonida xilma-xil ohanglarni keltirib chiqarish mumkin, ya'ni bitta gapning o'zida ham salbiy, ham ijobiy ohangdagi ma'no vujudga keltirish mumkin. Bu faqat o'sha so'zning qanday talaffuz qilinishi va urg'usiga qarab aniqlanadi. Masalan,

Bir cho'g' edim yov qoshida ketdim yonib,

O'ch olarim bor ekan-ku qonib-qonib

Bu o'rinda –ku yuklamasi ta'kid bilan birga xursandchilik va sevinish ohangini ham ko'rish mumkin.

Yoki:

*Sodiq pirluk qilgan, buzrukvor yoron,
Men erga kirdim-ku chiqmasdan changim.*

(E.Vohidov)

Demak, intonatsiya nutqimizda juda katta amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u so'zlovchining tom ma'nodagi maqsadini tinglovchiga aniq va ravshan etkazib berishga xizmat qiladi. O'z o'rinda tinglovchi gap ohangidan o'ziga tegishli ma'noni uqib oladi. Gapdagi intonatsiya va ma'no uzviy bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev A. –gina intensivlik ifodalovchi affiks sifatida// O'.T.A. 1973. –№ 5. –B. 73-75.
2. Abdurahmanov G'. Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. Morfologiya va sintaksis. –Toshkent: O'qituvchi, 1973. –B. 320
3. Ahmedov A. –mi yuklamasi va uning qo'llanishiga doir // O'.T.A. – Toshkent, 1961. - № 3 –B. 45-49.
4. Vohidov E. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2001 // jild.
5. Dimitriev N.K.Stroy tyurkskix yazikov. – Moskva: Vostochnaya literatura, 192. – S. 07.
6. Kim O.M. transpozitsiya na urovke chastey rechi i yavlenie omonimi v sovremennom russkom yazike. – Toshkent: Fan, 1976. –S 4-5
7. Kamol F. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Fan, 1957. – B 303-305.
8. Meshaninov I.I. Chleni predlojenie i chasti rechi. – L: Nauka, 1978. – S. 387.
9. Tursunov U, Muxtorov J., Rahmatullaev SH. Hozirga o'zbek adabiy tili. – Tokent: O'zbekiston, 1992. – B. 249.
10. Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995.
11. Shaabdurahmonov Sh. O'zbek tilida yordamchi so'zlar. – Toshkent: Fan, 1963. – B 24.
12. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Moskva: Rus tili, 1981, II tom, - B. 494.

13. O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent: Fan, 1975. I tom, - B. 568-569.
14. Hojiev A. Lingvistik – terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.